



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2026-yil 6-may

N° 2125

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Seytirzayev Sherali Seyitnazarovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Xorazm viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Tuproqqal'a tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Siddiqov Otabek Mo'minovich – yozma arizasiga binoan O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Bag'dod tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Samatov Farrux Xasanovich – sudyalik sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan hamda sudning obro'sini tushuradigan nojo'ya xatti-harakat sodir etganligi hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Samarqand viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Xalilov Faxriddin Maxmudovich – odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov